

BOSHLANG'ICH SPORT TAYYORGARLIGI GURUHLARIDA MASHG'ULOT YUKLAMALARINI TANLASH XUSUSIYATLARI

Niyazov Saxipjan Sabirjanovich
Jismoniy madaniyat nazariyasi va
metodikasi kafedra mudiri p.f.n., dotsent.

Annotatsiya: Yosh sportchilarning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi har tomonlama jismoniy tayyorgarlikni ta'minlash bilan bir qatorda voleybolga xos harakat qobiliyatlarini maqsadli tarbiyalash zarurligiga urg'u berilishiga e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich tayyorgarlik, makrotsikl, yosh sportchilar, tarbiyalash harakat, maqsad.

Abstract: The stage of initial training of young athletes focuses on providing all-round physical training, as well as emphasizing the need to purposefully educate volleyball-specific movement skills.

Key words: Initial training, macrocycle, young athletes, training, action, goal

Аннотация: На этапе начальной подготовки юных спортсменов основное внимание уделяется обеспечению всесторонней физической подготовки, а также акцентированию необходимости целенаправленного воспитания специфических для волейбола двигательных навыков.

Ключевые слова: Начальная подготовка, макроцикл, юные спортсмены, тренировка, действие, цель.

Sport bilan shug'ullanish jismoniy rivojlanish va tayyorgarlik ko'rsatkichlarini yaxshilash, texnik imkoniyatlarni oshirishga ko'maklashadi. Yosh sportchilarning sport tayyorgarligining ko'p yillik jarayoni tuzilmasi va mazmuni doimgidek qolishi mumkin emas. Chunki sport bilan uning jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi darajasi va asab tizimi xususiyatlari o'zgaradi [1,3]. Boshlang'ich tayyorgarlik davrida shug'ullanish jarayoni kuch-quvvatga to'lgan holdagi sport mahoratini ko'rsatuvchi barcha jihatlariga ega bo'lib boriladi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT) ning solishtirma og'irligi dastlabida katta bo'lmaydi. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida umumrivojlanish vositalari miqdori jismoniy tayyorgarlik umumiy hajmining 85-90%, MJT vositalari esa 10-15%ga yetadi.

Umumiy miqdor keng miqiyosda ko'paysada, yuqori jadallikdagi mashqlar miqdori keyingilariga qaraganda, ancha sekin sur'atlarda o'sib boradi. Ayniqsa, jadal o'sish va organizmning balog'atga yetishi davrida topshiriqni kengaytirish va keskinligiga ehtiyotkorlik bilan yondoshish zarur. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanish jarayonini davriylashtirish o'z xususiyatlariga ega. Shug'ullanish makrotsiklda deyarli barcha mashg'ulot tayyorlov davri tipi bo'yicha tashkil etiladi. Bellashuv, ba'zan esa o'tish davrlari ixchamlashgan holda namoyon bo'ladi. Mashg'ulot vositalari, usul va shakllarining keng miqiyosda o'zgarishi bilan bir vaqtda mikrotsikllar maktab yillari davriga mos ravishda qisqa muddatlarga ega bo'ladi.

Yosh sportchilarni boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullantirishning asosiy ratsional yo'nalish to'g'risidagi masalada mutaxassislar o'rtasida turli fikrlar mavjud. Yosh sportchilar bilan ishlashda jismoniy xususiyatlarni tarbiyalash uchun zarur sharoitlarni yaratgan holda, asosan harakatli o'yinlar va o'yin mashqlarini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Qator mutaxassis [1] lar esa bu bosqichdagi bolalar bilan mashg'ulotlarda tanlangan turda keyingi ixtisoslashishni ifodalagan holda, sportning turli turlari elementlaridan foydalanish

zarurligini aytadilar. Ko‘plab izlanishlar natijalari [1,2] harakatli va sport o‘yinlari, o‘yin mashq va mashg‘ulotlarini, shuningdek, jismoniy qobiliyatni tarbiyalashga yo‘naltirilgan, yosh sportchilarning voleybolga moslashishda muhim rol o‘ynaydigan maxsus tayyorgarlik mashqlari kompleksini o‘z ichiga olgan kompleks shug‘ullanish usulini qo‘llash sport tayyorgarligining yuqori samaradorligini ta‘minlashini ko‘rsatadi.

Qator izlanishlar yosh sportchilar boshlang‘ich tayyorgarligi vosita va usullarining o‘zaro optimal nisbatini topish yo‘nalishida bajarilgan. S.V.Kaledin tajribasida belgilanishicha, tezlik-kuch qobiliyatlarini (40%lik vaqt) tarbiyalashga yo‘naltirilgan asosiy shug‘ullanish vositalarini qo‘llash boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida eng samarali uslubiy holat hisoblanadi. Chidamlilik, chaqqonlik, tezlik va egiluvchanlikni tarbiyalashga yo‘naltirilgan vositalarga 15%dan vaqt ajratilgan. N.A.Fomin va V.P.Filin bu davrda 60%gacha, vaqt umumiy chidamlilikni tarbiyalashga yo‘naltirilgan vositalarga, 25% tezlik va tezlik-kuch mashqlariga, 15% boshqa jismoniy qobiliyatlarni tarbiyalashga ajratish zarurligini ta‘kidladilar.

Ko‘pchilik tadqiqotlar asosan tezlik, kuch va chidamlilikni tarbiyalashga yo‘naltirilgan mashqlar nisbati muvofiq ravishda 50, 25, 25% vaqt hisobida bo‘lishi kerak, deb hisoblaydilar. V.G.Alabin dalillariga ko‘ra, shug‘ullanish jarayoni holati mashg‘ulot umumiy vaqtning 75% umumiy va maxsus tayyorgarlikka (37,5% - o‘yin va o‘yin mashqlariga, 37,5% - maxsus tayyorlov mashqlari kompleksiga) ajratilishi eng samarali sanaladi [11]. V.S.Keller va V.N.Platonovlar [3] ham har tomonlama jismoniy tayyorgarlik vositalarining ana shunday (75%gacha) miqdorini taklif etadilar. Ayrim mualliflar fikricha, chaqqonlik, kuch va tezlik-kuch qobiliyatlarini yaxlit holda rivojlantirishga yo‘naltirilgan tezlik mashqlaridan foydalanishda 9-11 yoshli bolalar jismoniy xususiyatlarining rivoji eng yaxshi samara darajasiga yetadi.

S.V.Juravleva [2] 9-12 yoshli bolalarda chaqqonlik, kuch va chidamlilikni tarbiyalash metodikasi samaradorligini aniqlash bo‘yicha umumiy jismoniy tayyorgarlik vositalari bilan qiyosiy tajriba o‘tkazdi. Tezlik-kuch karakteridagi mashqlar (70%) basketbol, gimnastika, suzish, yengil atletika sporti (30%) elementlari bilan birga qo‘shib qo‘llanilgan guruhda harakat qobiliyatlari rivojida sezilarli siljishlar ko‘zga tashlandi. Shunday qilib, ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili bo‘yicha yosh voleybolchilar boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichining ustivorligi, harakat qobiliyatlarini tarbiyalashda uslub va vositalarning optimal nisbati, o‘quv-mashg‘ulot jarayonining shakllari va ularni tashkil qilish haqida turli fikr-mulohazalar mavjud ekanligi aniqlandi.

Xulosa o‘rnida; yosh sportchilarning boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi har tomonlama jismoniy tayyorgarlikni ta‘minlash bilan bir qatorda voleybolga xos harakat qobiliyatlarini maqsadli tarbiyalash zarurligiga urg‘u berilishiga e‘tibor qaratadi. Sport bilan shug‘ullanish jismoniy rivojlanish va tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini yaxshilash, texnik imkoniyatlarni oshirishga ko‘maklashadi. Ammo, ularning ta‘siri bir xil emas. Yuqori pedagogik samaradorlik 9-12 yoshli bolalarda kuzatiladi. Bunda shaxsiy xususiyatlar, jumladan jismoniy rivojlanish va tayyorgarlikni hisobga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zatsiorskiy V.M. Bulgakova N.J. Теоретические и методологические основы отбора в спорте. - М.: ГЦОЛИФК, 1980. - 41 с.

2. Zorina T.M. Индивидуализация технической подготовки юных волей-болистов с использованием тренажерных устройств: Автореф. дис. . . канд. пед. наук. - М., 1992. - 22 с.

3. Usmonhodjaev T.S. Основы двигательной деятельности школьников. //Автореф. дисс.докт.пед.наук. Ташкент, 1995. – 43 с.